



100000, Toshkent sh., Amir Temur' shoh ko'chasi 60 A
http: www.tfi.uz e-mail: devonxona@tfi.uz

Tel.: +99871 234-53-34, +99871 234-67-71
fax: +99871 234-46-26

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi h/r 23402000300100001010, MB BB XKKM Toshkent shahar, bank kodi 00014, STIR 201122919
Toshkent moliya instituti sh.h/r 100010860262667094100079001 (budjet), sh. h/r 400910860262667950100079001 (to'lov-kontrakt), STIR 201221691

№ 30/4540

"22" 08 2020 yil

Hurmatli ABITURIENT !

Avvalo, Sizga mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasidan bizning **Toshkent moliya institutini** tanlaganingiz uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

Bizning jamoa o'z oldiga zamonaviy bilimlarni egallab, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lishni hamda jonajon Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shishni niyat qilgan intiluvchan yoshlarga o'z maqsadlariga yetishishida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi va bor imkoniyatlarini safarbar etadi.

2020-2021 o'quv yilida **Toshkent moliya instituti** kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha **15 ta** bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida **1000 nafar** talabani qabul qiladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yoshlarning oliy ta'lim olishlari uchun yaratilayotgan sharoitlar yildan-yilga kengayib, inson kapitaliga davlat tomonidan juda katta investitsiya kiritilmoqda. Bunday g'amxo'rlik natijasida talabalikka qabul qilingan yoshlar soni oxirgi uch yilda **uch barobarga** ortdi. Joriy yilda abituriენტlarning hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish to'liq masofadan amalga oshirildi. Bizning **Toshkent moliya institutiga** kirish uchun birinchi ta'lim yo'nalishi bo'yicha **16 584 nafar** abituriენტ hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazdilar.

Bugungi kunda butun jahonda kechayotgan pandemiya sababli mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari muddatlari kechiktirildi. Bu avvalo, Siz - yoshlarning salomatligingizni o'ylab, o'z bilimingizni namoyon qilish uchun qulay va xavfsiz shart-sharoit yaratish maqsadida qilindi.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan kirish imtihonlari shaharlar va viloyatlardagi markaziy stadionlarda, ya'ni ochiq maydonlarda karantin talablariga qat'iy rioya etgan holda **2020 yil sentyabr oyining 2-sanasidan boshlab** o'tkazilishi rejalashtirildi.

Siz **pasportingiz va DTM ruxsatnomangiz bilan** ruxsatnomada ko'rsatilgan manzilga belgilangan vaqtda yetib kelishingiz zarur. Eslatib o'tamiz, DTM ruxsatnomalarini joriy yilning **22 avgustidan boshlab DTM sayti (www.dtm.uz)dagi shaxsiy kabinetingiz** orqali olishingiz mumkin!

Muhtaram Abituriენტ!

Imtihon kuni belgilangan manzilga karantin qoidalariga rioya qilib, xavfsizligingizni ta'minlab, yaxshi kayfiyatda va o'z vaqtida yetib kelishingizni so'raymiz.

Aziz ota-onalar va yaqinlaringizdan imtihon kunlari uyda qolib, imtihon jarayonlarini onlayn kuzatib borishlarini so'raymiz.

Kirish imtihonlarining o'tish muddati, jadvali va natijalari hamda o'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga javoblarni <https://tfi.uz> sayti, https://t.me/tfi_news telegramm kanalidan olishingiz, shuningdek **71-234-06-75, 71-234-01-91, 71-235-12-91, 71-235-13-21, 71-235-50-66** raqamli telefonlarga murojaat etishingiz mumkin.

Unutmang, faqat puxta tayyorgarlik va kuchli bilim bilangina talaba bo'lish baxtiga muayassar bo'lishingiz mumkin. Shunday ekan, bir daqiqa ham bilim olish va o'z ustingizda ishlashdan to'xtamang. Sizga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib olishingizda ulkan zafarlar tilaymiz.

Omad yor bo'lsin!

Hurmat bilan,
Toshkent moliya instituti rektori v.v.b.

 S.Mehmonov